



QADIMGI ARAB, O'RTA OSIYO, RUS VA YEVIROPA TILSHUNOSLIGI

Ishkuvatova Firuza Eldarovna

Samarqand davlat chet tillari institute 1-kurs talabasi

firuzaishkuvatova@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi arab, O'rta Osiyo, rus va Yevropa tilshunoslarining ilmiy izlanishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ma'lum bir tilning grammatik qoidalari, o'sha davrning mashhur deb hisoblangan tillarining lug'atlari yaratilish tarixini o'rganishga qaratilgan. Olimlar o'zlarining so'zlashuvdagi tillarini tahlil qilish jarayonida, o'zlaridan oldingi fandoshlarining nazariyalarini o'rganganliklari va taqqoslaganliklari yoritiladi. Kelajak avlod uchun me'ros bo'lib qolgan ma'lumotlar to'plami, ilmiy asarlar ro'yxati keltiriladi. Bundan tashqari, ushbu qadimgi davr nazariyalarining amaldagi tilshunoslik qoidalariga qo'shilgan hissalar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Chog'ishtirma, artikulyatsion-funksional, psixologizm, nominalizm, realism.

Kirish. Bilamizki, qadimgi davrda ham ma'lum bir tilning o'z qonun-qoidalari bo'lgan. Tilshunoslik fanining yaratilishi ham ba'zi bir ehtiyojlarga ko'ra kelib chiqqan, masalan, ma'lum bir millatning muqaddas kitobini tushunish - eng dolzarb masala bo'lgan. Bundan tashqari, olimlar ifodalanayotgan nutqning tinglovchiga benuqson yetib borishi, kelajak avlod uchun yetkazilishi kerak bo'lgan tarixiy qo'llanmalar, asarlarning aniq va tushunarli tarzda me'ros bo'lib qolishini ta'minlashga harakat qilishgan. Ushbu amaliyot asrlar davomida o'z dolzarbligini yo'qotmadi. Shuning uchun hozirgi payt tadqiqotchilari nafaqat yangi fikr va mulohazalar yaratish, balki oldingilarini ham inobatga olish bilan faoliyat olib bormoqda.

Qadimgi arab tilshunosligining paydo bo'lishi milodiy VII, VIII asrlarga to'g'ri keladi. Uning taraqqiy etishini biz Islom diniga bog'liq deb ta'kidlashimiz mumkin. Chunonchi, arablar dinimizning muqaddas kitobi sanalgan "Qur'on" ni to'g'ri tahlil qilish, tushunish, so'zlarni xatosiz talaffuz qilish, unga sharh yozish uchun ushbu fan ustida ilmiy ish olib borishgan. Bu bilan birga, yana asosiy sabablardan biri bu arab tilining dialekt ko'rinishlarining ko'p bo'lganligi.

Tilshunoslikning markazi dastlab Bag'dod va Kufa bo'lgan, keyinchalik, ba'zi bir sabablarga ko'ra Bag'dod va Basraga o'zgartirilgan.

Arab tili tilshunosligiga hissa qo'shgan olimlar. Shubhasiz, eng birinchi olimlardan Muhammad payg'ambarimizning kuyovi sanalgan Hazrati Ali eng katta xizmatlardan birini oshirgan. U Qur'on matnini, oyatlarini mukammal tushunganligi sababli ot, fe'l va yordamchi so'zlarni inobatga olgan holda grammatik qo'llanma yaratdi. Bundan tashqari, tilshunoslikni rivojlantirishga qaratilgan qator olimlar lug'atlari mavjud. Eng birinchilardan



bo'lib, Xalil al-Farhodiy grammatika haqida o'zining fikrlarini aytadi va ilk arab tili lug'ati, "Kitobul-ayn" ni yozib qoldiradi. U Basra grammatika maktabida faoliyat olib borgan va ushbu maktabning yuksalishiga yetarlicha hissasini qo'shgan. O'z tadqiqoti davomida boshqa hamkasblarining ham izlanishlarini, ta'limotlarini o'rganib, e'tiborga olgan holda o'z arab tili grammatikasini mukammal va tugal yaratgan shaxs bu Amir ibn Usmon Sibavayxiy. Abu-Abayda esa noyob so'z va ibora, ifodalarning keng qamrovli lug'atini tuzgan. Sag'ani tomonidan ishlab chiqilgan lug'at qadimda mashhur hisoblanib 20 tomni o'z ichiga oladi. U lug'atga "To'lqinlar toshqini" deb nom bergan. O'zga millat vakillari ham arab tiliga qiziqish bildirishadi va bu: Misrlik ibn Mansur katta hajmdagi salmoqli lug'at tuzib, uni "Arab tili" deydi. Eng katta hajmdagi foydali lug'atlardan biri bu "Qomus" (okean) asaridir. U Feruzobodiy tomonidan tuzilgan bo'lib, jami 60 tom.

Arablarining lug'atshunoslik bobida qilgan ishlari ibratlidir, albatta. Lekin bu lug'atlarda ko'proq sheva materiallari beriladi. Bundan tashqari, arab lug'atlari u paytlarda alifbo tartibiga asoslanmagan edi. Bu kamchiliklar keyingi leksikografik iishlarda, masalan, al-Javharning 40000 so'zli lug'atida tuzatildi. Al Geraviyning lug'ati ham alifbo tartibida yozilgan edi. Arab tilshunoslari leksikologiya sohasida juda katta yutuqlarga erishgan. Lug'atlar mazmuniga ko'ra olti guruhga bo'linadi:

1. To'liq izohli lug'at; 2. Predmet lug'atlari (masalan, hayvonlar bilan bog'liq); 3. Sinonimlar lug'ati; 4. Noyob so'zlar lug'ati; 5. O'zlashgan so'zlar lug'at; 6. Tarjima lug'ati.

Arablar morfologiya bo'limini ham nazardan chetda qoldirishmadi. Ular ushbu bo'limning ajralmas qismi hisoblangan so'z turkumlarini guruhlariga ajratadi. Bular: ismun (ot), felun (fe'l) va yordamchi so'zlar va affikslarga bo'ladi. Ta'kidlab o'tish joizki, ular ot so'z turkumi tarkibiga ot, sifat va olmoshni kiritishadi. Arablar nazariyalari hozirgi davrning grammatik qoidalariga to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin. Negaki ular otlarni ikki turga: atoqli va turdosh otga bo'ladi. Turdosh otlarning o'zi ham aniq va mavhum otlarga bo'lingan. Otlarning kelishik kategoriyalari sifatida tushum kelishini (-ni), jo'nalish kelishigi (-ga, - ka, - qa), o'rin va payt kelishigi (-da) va birgalik kelishigi (bila) qayd etiladi.

Arab tilshunosligiga O'rta Osiyo olimlarining ham ulushlari katta bo'ldi. Bunga Ibn Sinoning "Arab tili fonetikasi", Zamaxshariyning "Al-Mufasssal", "Asos-ul balog'a" va boshqa asarlari dalil bo'la oladi. Arablar va g'ayri arablar ustozlari sanalgan Mahmud al-Zamaxshariyning arab tilshunosligiga qo'shgan hissasi katta ekanligini biz uning asarlaridan bilishimiz mumkin. Uning mashhur kitoblaridan birining nomi (Al-Kashshaf) kashaf "ochmoq" fe'lidan olingan. Shunday qilib, bu kitob Qur'on iboralarining sintaktik va semantik noaniqliklarini ochishga harakat qiladi. Uning ushbu asaridan maktablarda foydalanilgan.

Mahmud Zamaxshariyning "Al – Mufasssal" asari besh qismdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limi ot turkumiga, ikkinchi bo'limi fe'l turkumiga oid so'zlar tavsifiga, uchinchi bo'limi yordamchi so'zlar tavsifiga bag'ishlangandir. Asarning to'rtinchi bo'limi



“Otlarning turlanishi”, beshinchi bo‘limi esa “Fe’llarning tuslanishi” deb nomlangan. Mahmud Zamaxshariyning yana bir asarida dorivor o‘simliklarning nomlari hamda bunday o‘simliklar o‘sishi mumkin bo‘lgan tog‘lar va boshqa hududlar haqida ma’lumotlar beriladi.

O'rta Osiyo tilshunosligining rivojlanishi. O'rta Osiyoda birinchi renessans davri IX-XII asrlarda bo'lib o'tgan. Biz bu davrni Uyg'onish davri deb ataymiz. Ushbu davrda ko'plab allomalarimiz geodeziya, astronomiya, matematika, musiqa, tarix fanlarida o'z faoliyatlarini olib borishgan. Tilshunoslikning taraqqiy etishi ham mana shu paytga to'g'ri keladi.

Tilshunoslikga o'z hissasini qo'shgan O'rta Osiyo olimlari. Bulardan eng mashhur Abu Nasr Farobiydir. U "Fanlar tasnifi" (yoki "Fanlar tasnifi haqidagi so'z) nomli kitobini lingvistikaga bag'ishlagan. Farobiy fonetika, morfologiya, sintaksis, orfoepiya, orfografiya va stilistika bo'limlariga oid ma'lumotlarni to'playdi va o'z fiklari bilan bo'lishgan. U leksik birlikga ham to'xtalib, so'z tasnifini o'rganadi. So'z ma'nosi ikki turga bo'ladi: sodda va murakkab. Sodda ma'noli so'zlarga atash ma'nosini bildiruvchi so'zlar kiritiladi. Masalan: odam, hayvon, gul. Murakkab turiga esa narsa va uning belgisini bildiruvchi so'zlar: "bu o'quvchi - intiluvchan" kabi ifodani kiritadi. Bundan tashqari Abu Rayhon Beruniy predmet va uning nomi munosabati alohida e'tibor bergan. Ushbu masala qadimgi tilshunoslik davridan to' shu kungacha dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Yana bir allomalarimizdan biri Abu Ali ibn Sino fonetikaga oid o'z mulohazalarini yaratgan. U harflarni unli va undosh tovushlarga bo'lgan. Bunda unli tovushlar 3ta, undosh tovushlar esa 28ta.

Bundan tashqari, lug'atshunoslikka ham alohida e'tibor berilganligi manbalardan ma'lum. Mahmud Ko'shg'ariy o'z faoliyati davomida beqiyos asar bitadi. Bu "Devoni lug'ati turk" asari turk tili lug'atiga asoslangan bo'lsada, arab tilida yozilgan. Uning bu asari turkiy tilshunoslikning ensiklopediyasi deb ham ataladi. U qiyosiy grammatikaga ham asos soladi.

O'rta Osiyo tilshunosligining shakllanishi 2 davrga bo'linadi. Bular Navoiygacha bo'lgan davr va Navoiydan keyingi davr. Uning ko'plab asarlari mavjud:

Xazoyin ul-maoniy

Lison ut-tayr

Xamsa

Majolis un-nafois

Mezon ul-avzon

Muhokamat ul-lug'atayn.

O'sha davrda barcha shoirlar ko'proq fors-tojik tilida faoliyat olib borishgan. Ammo Alisher Navoiy har qanday janrda ham turk tilida ijod qilish mumkin ekanligini isbotlaydi. Navoiy chog'ishtirma lingvistikaning otasi deya ulug'lanadi. Uning lingvistikaga qarashlari hozirgi kunda ham dolzarb masala bo'lib qolgan.



Til va nutq hodisalarini bir-biriga farqlagan; til va tafakkurning o'zaro chambarchas bog'liqligini ta'kidlagan; tilning vujudga kelishi haqida fikr bildirgan, tovushlarning artikulyatsion-funksional tomoniga e'tibor qaratadi; so'z yasashini o'rganadi; turk tili lug'ati boy ekanligini isbotlaydi.

Qadimgi rus tilshunosligi. Rus tilshunoslari ham fan taraqqiyoti uchun cheksiz xizmat qilishgan. Tarixdan bilamizki, rus millati madaniyatli, intellekti yuqori xalq bo'lgan. Shuning uchun ham ular dunyo tillarini puxta o'rganishga tirishganlar. Fandagi yutuqlari ham cheksiz bo'lgan. Ular lisoniy hodisalarni chuqur tahlil qilishgan, tilshunoslikning ilmiy-nazariy muammolariga alohida e'tibor berishgan, chuqur izlanishlar davomida yangi farazlar va ta'limotlarni yaratgan. Ushbu fandagi yutuqlari hozirda ham asqatmoqda.

Mixail Vasilyevich Lomonosov jonli rus tili asosida yaratilgan grammatikasi juda katta shuxratga ega bo'lgan. Uning "Rossiya grammatikasi" asari 6 bo'limdan iborat. Bular 1. So'z haqida. 2. Orfoepiya va orfografiya haqida. 3. Nom(ot) haqida. 4. Fe'l haqida. 5. Ko'makchi haqida. 6. Sintaksis haqida.

Rossiya tilshunosligida psixologizm oqimining eng ko'zga ko'ringan vakili Aleksandr Afanasyevich Potebnya. U rus, ukrain, va jahon tilshunosligining buyuk vakili va slavyan va boltiq tillarining tadqiqotchisi. Uning ikki mashhur asari mavjud:

1. Fikr va til
2. Rus grammatikasidan lavhalar

O'rta asrlarda Yevropa tilshunosligi. Ushbu davrda har xil ta'limotlar vujudga kelishni boshlaydi. Bularning hammasi o'zga xos bo'lib, aniq bir maqsadlar va vazifalar uchun yo'naltirilgan bo'lgan.

Ruhoniy Anselm realizm ta'limotiga yondashgan. Rossellin esa nominalizm ta'limotiga ko'ra mulohaza yuritgan. Ushbu yo'nalish haqiqatga to'la, muvofiq, real tarzda faqat o'ziga xos xususiyatlarga, belgilarga ega bo'lgan narsa, predmet, hodisalargina mavjud degan g'oyani ilgari surgan.

Yevropa tilshunosligida Dekart, Leybnits kabi olimlarning falsafiy qarashlari ta'sirida tilning grammatik qurilishini mantiqiy qoidalar va mezonlar asosida talqin qilish ham o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan. Bunday tadqiqotlarning natijasi sifatida XVII-XVIII asrlarda mantiqiy grammatikalarning bir necha o'xshash ko'rinishlari vujudga keldi. 1660-yilda Parij atrofidagi Por-Royal monastirining rohib olimlari mantiqshunos Anton Arno va tilshunos Klod Lanslolar ilk bor "Umumiy ratsional grammatika" asarini fransuz tilida yaratdilar. Bu asar Parijda nashr qilindi. (1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010. 2. Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 2009.)

Xulosa. Qadimgi arab, O'rta Osiyo, rus, Yevropa olimlarining nazariyalari, asarlari, lug'atlari hozirgi davr tilshunosligi uchun poydevor rolini o'ynamoqda. Hozirgi tilshunoslar yuqorida qayd etilgan ta'limotlarni namuna sifatida qo'llashmoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, lingvistika yo'lashi necha asrlar o'tmasin, hatto kelajakda ham dolzarb mavzu bo'lib qolishi aniq. Binobarin, bu fan chuqur va ko'plab munozaralarga sabab bo'luvchi



fandir. Hozirda yurtimizda ham tilshunoslikning mohiyatini tushunish, qandaydir ma'noda yangiliklar kiritish amalga oshirilmoqda. Bunda ma'lum oliygoh o'qituvchilarining nashrdan chiqayotgan tilshunoslikka oid qo'llanmalari ushbu fikrimga isbotdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010.
2. Ирискулов И. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent, 2013
4. Holmanova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007
5. Усмонов. С. Умумий тилшунослик. – Т., 1972.
6. Лоя. Я.В. История лингвистических учений. –М., 1968
7. Шерматова., Чориев Б. “Умумий тилшунослик” курсидан мустақил ишлар. – Тошкент, 1989.